

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA HAYOTIY HAQIQATGA SODIQLIKKA DOIR**G'ofurova Mohinurbegim Furqat qizi****FarDu talabasi****www.doi.org/10.5281/zenodo.10477968**

Annotatsiya: Bilamizki ko'plab o'zbek adiblarining real hayot voqealariga uyg'un holda yoritilgan asarlari kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi hayotiy haqiqatlarning mahorat bilan yoritilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona siymosi, hayotiy haqiqatga sodiqlik, milliylik, mentallik.

O'zbekiston xalq yozuvchisi noyob iste'dod sohibi O'tkir Hoshimov takrorlanmas asarlari bilan o'zbek adabiyotiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Adibning ko'plab asarlari kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan. Xususan, yozuvchining "Dunyoning ishlari" asari shular jumlasidandir. Ushbu asarda adib o'z onasi siymosida 2-jahon urushidan so'ng zahmat va mashaqqatlar bilan hayot kechirgan mushfiq o'zbek onalari timsolini mahorat bilan tasvirlaydi. Asarda real hayot voqealari milliy qarashlar bilan uyg'un holda yoritilgan. Asar avvalida muallif tomonidan keltirilgan quyidagi jumla ham buning isbotidir. " Bundagi odamlarni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos"¹. Darhaqiqat O'tkir Hoshimov ushbu asardagi voqealarni badiiy to'qima shaklida yaratmadi, aksincha, har bir inson hayoti davomida uchraydigan holatlarni mentallikka tayangan holda mahorat bilan qog'ozga tushirdi. Shu o'rinda mentallik tushunchasiga izoh beradigan bo'lsak. Mentallik u yoki bu millat xususiyatlaridan kelib chiqadigan tafakkur tarzi, olamni milliy asoslarga tayanib idrok qilishdir.² Asardagi quyidagi jumlada ham mentallik yaqqol ko'zga tashlanadi: " Kun botishi bilan onam hovliga ko'loblatib suv separ, kun bo'yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi"³. Har bir o'zbek xonadonida mavjud bo'lgan supa va uning yoniga ekiladigan rayhonlarni mahorat bilan qalamga olish orqali adib asarga o'zgacha milliylik muhitini olib kira oladi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joziki, muallif bu asarda o'zining barcha eng ulug' hislarini tarannum etgan holda ona siymosiga alohida e'tibor qaratadi. Quyidagi jumлага e'tiborimizni qaratsak: " Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona -ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas".⁴ Ushbu satrlar muallifning qalb ummonidan to'kilgan shoda marvaridlardek go'yo. Darhaqiqat onalarga boshqa sifat kerak emas. Bu nomning ma'nosining o'zi ulug'dir. Bundan tashqari asarda onalarning muborak nomlariga bag'ishlangan jumlalar bisyor. Muallif har bir farzand aytishni hohlagan qalbiga jo qilgan samimiy fikrlarini badiiy mahorat bilan qalamga olgan. Aynan shu orqali ham kitobxon asarni o'qish davomida qahramonlar bilan birga yashagandek bo'ladi. Ularning qalb tuyg'ularini his eta oladi

Asarni o'qir ekanmiz, bunday jumlalarga juda ko'p marotaba duch kelamiz, albatta. Ularda, nafaqat, insonlarning iliq tuyg'ulari, milliylik balki hayotimizda uchraydigan turli xil

¹ O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" 3- bet Toshkent 2019

² Gulnoz Halliyeva "Qiyosiy adabiyotshunoslik" 146-bet Toshkent 2020

³ O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" 3- bet Toshkent 2019

⁴ O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" 8-bet Toshkent 201

vaziyatlarni yozuvchi o'zining badiiy mahorati bilan juda ham ta'sirli shaklda qog'ozga tushirgan.

Xulosa o'rnida shu aytish joizki O'tkir Hoshimovning „nafaqat, “Dunyoning ishlari” asari balki, uning qalamiga mansub barcha asarlari juda ham mahorat bilan yozilgan va kitobxon qalbining tub-tubidan joy oladi. Yuqorida aytib o'tilganlar dengizdan bir tomchi xolos. Adibning barcha asarlari insonni tafakkur qilishga undaydi . Shu sababli, albatta, ushbu asarlar bilan tanishish adabiyotshunoslar tomonidan tavsiya etiladi.

References:

1. Gulnoz Halliyeva “Qiyosiy adabiyotshunoslik” Toshkent Akademnashr 2020yil.
2. O'tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” Toshkent 2019yil.
3. www.ziyo.uz

